

SURXONDARYODA MAHALLIY KADRLAR SALOHİYATINI YUZAGA CHIQRISHDA MARKAZIY HOKIMIYAT STRATEGIYASI

Meliyeva Shoira Yo'ldoshevna

Denov tadbirkorli va pedagogika instituti magstri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20085644>

Annotatsiya Ushbu tadqiqotda 1920–1990-yillar davomida Surxondaryo vohasida yuritilgan kadrlar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari arxiv hujjatlari asosida ilmiy tahlil qilingan. Maqolada Ittifoq markazi tomonidan mutaxassislarining jalb etilishi, kadrlar rotatsiyasidagi tizimli muammolar va mahalliy sharoitga moslashish jarayonlari yoritiladi. Kadrlar strategiyasining mintqa iqtisodiyoti uchun samaradorligi hamda mahalliy kadrlar salohiyatini cheklagan ziddiyatli jihatlari tarixshunoslik nuqtayi nazaridan baholangan. Xususan, Termiz qishloq xo'jaligi texnikumining mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni va paxtachilik tarmog'idagi statistik tahlillar asosida, mahalliy boshqaruv zaxirasining faqat 1980-yillarga kelibgina shakllangani isbotlangan.

Аннотация В данной статье на основе архивных документов проведен научный анализ особенностей кадровой политики, проводившейся в Сурхандарьинском оазисе в 1920–1990-х годах. В работе освещаются вопросы привлечения специалистов из Союзного центра, системные проблемы ротации кадров и процессы их адаптации к региональным условиям. С точки зрения историографии дана оценка эффективности кадровой стратегии для экономики региона, а также её противоречивых аспектов, ограничивавших потенциал местных кадров. В частности, на основе анализа роли Термезского сельскохозяйственного техникума в подготовке специалистов и статистических данных в хлопководческой отрасли доказано, что стабильный резерв местных управленческих кадров сформировался лишь к 1980-м годам.

Abstract This research provides a scholarly analysis of the specific features of personnel policy implemented in the Surkhandarya oasis between 1920 and 1990, based on archival documents. The article examines the recruitment of specialists from the Union Center, systemic challenges in personnel rotation, and the processes of adaptation to regional conditions. From a historiographical perspective, it evaluates the effectiveness of the personnel strategy for the regional economy, as well as its contradictory aspects that constrained the potential of local human resources. Specifically, through an analysis of the Termez Agricultural Technical School's role in professional training and statistical data from the cotton industry, it is scientifically proven that a stable reserve of local management personnel emerged only by the 1980s.

Kalit so'zlar. Surxondaryo, kadrlar siyosati, paxtachilik, mahalliy mutaxassislar, agrar modernizatsiya, kadrlar transferi, monomadaniyat.

Ключевые слова. Сурхандарья, кадровая политика, централизованное управление, хлопководство, местные специалисты, аграрная модернизация, трансфер кадров, монокультура.

Keywords. Surkhandarya, personnel policy, centralized management, cotton growing, local specialists, agricultural modernization, personnel transfer, monoculture.

1. Kirish (introduction). Surxondaryo viloyatining qishloq xo'jaligi tarmog'ini taraqqiy ettirishda kadrlar salohiyati har doim strategik ustuvorlik kasb etib kelgan. XX asrning 20-yillariga kelib, vohada malakali mutaxassislarining keskin yetishmasligi sovet hukumatini

tizimli ravishda “kadrlar transferi” (mutaxassislarni tashqaridan jalb etish) siyosatini qo‘llashga undadi. Mazkur bo‘limda markazlashgan kadrlar boshqaruvi tizimining konseptual asoslari va uning mintaqaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan.

2. Tadqiqot metodologiya (methods). Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA) va Surxondaryo viloyat davlat arxivi (SVDA) fondlari (R-837, R-2380, 125-fondlar) asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, xorijiy olimlar (A.L. Edgar, D. Northrop, M. Buttino) va mahalliy tadqiqotchilar (Q. Rajabov, K. Akramov) asarlari sintez qilindi.

3. Natijalar (results). Surxondaryo viloyatiga mutaxassislarni tashqaridan jalb etish strategiyasi va uning mintaqaviy kadrlar salohiyatiga ta’siri zamonaviy tarixshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalani tadqiq etishda R.H. Aminova, Q. Rajabov va N.E. Karimov kabi olimlarning ilmiy qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib, ularning ishlarida sovet hokimiyati yuritgan kadrlar siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari chuqur tahlil qilingan. Arxiv hujjatlari 1920-yillarning boshlarida vohaning ma’muriy boshqaruv, qishloq xo‘jaligi va texnika sohalarida kadrlar taqchilligi o‘ta keskin kechganini va bu holat hukumatni hududga boshqa mintaqalardan mutaxassislarni safarbar etishga majbur qilganini ko‘rsatadi [1. B. 23].

Biroq markaziy kadrlarni hududga yo‘naltirish siyosati o‘zining dualistik tabiati bilan ajralib turdi. Qisqa muddatli istiqbolda bu chora boshqaruv inqirozini yumshatishga yordam bergan bo‘lsa-da, uzoq muddatli strategiyada mahalliy kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishini sekinlashtirdi. 1920–1925-yillarda vohaga yuborilgan rus va slavyan millatiga mansub mutaxassislar mahalliy ekologik sharoit, dehqonchilik an’analari va hududiy mentalitetni bilmasliklari oqibatida kutilgan samarani bera olmadilar [2. B. 67].

1925–1930-yillarda kadrlar qo‘nimsizligi ochiq inqirozga aylandi. Mutaxassislarning aksariyati bir yildan ortiq ishlamasligi ishlab chiqarish barqarorligiga putur yetkazdi. Hattoki 1935–1940-yillarda ham yuborilgan mutaxassislarning qariyb 65 foizi moslashuv muammolari tufayli mintaqani tark etgan. Bu esa mahalliy kadrlar tayyorlashni hayotiy zaruratga aylantirdi [3. B. 23]. Garchi 1940-yillarga kelib Termiz qishloq xo‘jaligi texnikumi kabi muassasalar mutaxassis tayyorlashni boshlagan (1940–1945-yillarda 235 nafar bitiruvchi) bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich mavjud ehtiyojni qoplay olmadi.

Tarixchi K.A. Akramov qayd etganidek, mahalliy mutaxassislar masalasiga e’tiborsizlik qishloq xo‘jaligi taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi [4. B. 84]. Faqat 1950–1960-yillardan boshlab tizimli ta’lim islohotlari natijasida kadrlar tarkibida sifat o‘zgarishlari yuz berdi. 1980-yillarga kelib, mahalliy mutaxassislar salohiyati sezilarli darajada yuksaldi va 1985-yilga kelib, ayniqsa paxtachilik sohasidagi rahbar va mutaxassislarning asosiy qismi mahalliy kadrlardan shakllandi [5. B. 2].

Mazkur muammo jahon tarixshunosligida ham keng muhokama qilinmoqda. Amerikalik olim Adrienn Linn Edgar kadrlar transferi mahalliy xo‘jalik tizimiga transformatsion ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlasa [6. B. 167], britaniyalik Aleksandr Marshall yuborilgan kadrlarning tabiiy va ijtimoiy sharoitga moslasha olmaganiga e’tibor qaratadi [7. B. 245]. Marko Buttino markaziy kadrlarning mahalliy madaniyatni o‘rganishga qiziqmaganini tanqid qiladi [8. B. 189]. Vensan Furnio sovet paxtachilik strategiyasi asriy mahalliy tajribalarni inkor etganini [9. B. 234], Duglas Nortrop esa bunday "uslubiy uzilish" kadrlar siyosatining eng zaif nuqtasi bo‘lganini bayon etadi [10. B. 178].

4. Muhokama (discussion). Markaziy kadrlarning mahalliy dehqonchilik an'analari va ekotizimni inobatga olmaganligi ishlab chiqarishda tizimli uzilishlarni keltirib chiqardi. V. Furnio va M. Buttino kabi xorijiy tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, markazlashgan siyosat zamonaviy texnologiyalarni olib kirgan bo'lsa-da, mahalliy professional qatlamning mustaqil shakllanishini kechiktirdi. K.A. Akramovning fikricha, kadrlar tayyorlashdagi sustkashlik agrar islohotlar samaradorligini pasaytirgan.

5. Xulosa qilib aytganda, 1980-yillarning boshlariga kelibgina Surxondaryo viloyatida mahalliy mutaxassislar korpusi yetarli kasbiy tajriba to'plab, ishlab chiqarish jarayonlarini mustaqil boshqarish darajasiga ko'tarildi. Biroq, markazlashgan safarbarlik siyosatining uzoq muddatli salbiy oqibatlari mintaqaviy kadrlar salohiyatining o'z-o'zini yetishtirish jarayonini sezilarli darajada kechiktirdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Akramov K.A. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi kadrlari tarixi. – Toshkent: Fan, 1975.
2. Buttino M. La rivoluzione capovolta. – Napoli: L'ancora del Mediterraneo, 2003.
3. Edgar A.L. Tribal Nation: The Making of Soviet Turkmenistan. – Princeton: Princeton University Press, 2004.
4. Fourniau V. L'asie centrale et ses voisins. – Tashkent: IFÉAC, 2001.
5. Marshall A. The Caucasus Under Soviet Rule. – London and New York: Routledge, 2010.
6. Northrop D. Veiled Empire: Gender and Cultural Politics in Soviet Central Asia. – Ithaca and London: Cornell University Press, 2004.
7. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), R-837-fond, 1-ro'yxat, 56-ish.
8. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), R-2380-fond, 1-ro'yxat, 145-ish.
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi (SVDA), 125-fond, 1-ro'yxat, 45-ish.
10. “Сурхон тонги” gazetasi. 1975-yil 24-sentyabr; 1985-yil 10-avgust.